

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK SIFATIDA TILSHUNOSLIKDA RIVOJLANISHI

Andapulatova Firuza Ikramovna

*Far DU Magistratura bo'limi Lingvistika (fransuz tili) magistranti.
Fergana, O'zbekiston.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada frazeologik birliklarning lingvistik sifatida tilshunoslikda rivojlanishini tutgan o'рни yoritilgan. Leksikologiya so'zlarining etimologiyasi, semantikasi yangi so'zlarning yasalishi va paydo bo'lish usullari haqida ma'lumot berilib, misollar yordamida izohlangan.*

Аннотация: *В данной статье освещается идентификация фраз и ее роль в лингвистике. Этимология, семантика лексикологических слов даны сведения о способах образования и образования новых слов и объяснены на примерах.*

Abstract: *This article highlights phrase identification and its role in linguistics. Etymology, semantics of lexicological words are given information about the methods of formation and formation of new words and explained with examples.*

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish, o'rgatish global muammolardan biriga aylanib kelmoqda. Yurtimizning har bir fuqorosi o'zining tilidan tashqari yana bir tilni o'rganishi va ushbu tilni o'zining kasbida mohirona foydalanishi bu muammolarga yechimlardan biri bo'lib hisoblanadi. Rivojlanayotgan tilshunoslikda hozirgi kunda frazeologiya haqida turli ilmiy ishlar, monografiyalar paydo bo'la boshladi, bu esa tilda yanada chuqurroq o'rganishga va e'tibor loyiq bo'lyapti. Frazeologiya alohida lingvistik tik birligi, frazeologiyaning semantikasi, grammatik xususiyatlari, chuqurroq o'rganilyapti va turli tillarda ularning izog'hli lug'atlar yaratilyapti. O'zbek tilshunosligida ham hozirgi kunda salmoqli izohli lug'atlar paydo bo'lyapti. Ayniqsa, linguo-kulturologik yo'nalishidagi frazeologik birliklar haqida izohli lug'atlar yosh olimlar tomonidan yartilib kelinyapti. Bunday izlanishlar, shubhasiz, frazeologik birliklarning alohida lingvistik sifatida tilshunoslikda rivojlanishiga kata turtki bo'lyapti. Qardosh va noqardosh tillarda frazeologik birliklar qiyosiy va chog'ishtirib tadqiq qilinyapti va ularni tipologik tahlil qilinganda yuqori natijalarga erishilyapti. Bu masalaga V.A.Masalova ham o'z fikrini quydagicha keltirga "Tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorahasida vujudga kelgan tilshunoslik sohasidir, jonli milliy tilda mujassamlangan moddiy va ma'naviy madaniyatni o'rganuvchi va til jarayonlarida namoyon bo'ladigan gumanitar fandır yoki integratsion sohadir". Men Masalovani fikriga qo'shilgan holda shuni aytmoqchimanki, frazeologik birliklar aholining deyarli barcha qatlamida foydalanilganligi uchun ham u ijtimoiy ya'ni gumanitar sohaga yaqindir. Frazeomalar madaniyotshunoslik va tilshunoslik, antropologiya sohasidagi lingvokulturologiya va madaniy tadqiqotlar natijasini o'zida mujassam etgan yo'nalishdir. Shuning uchun ham frazeologik birliklar yaxlit birlik

hisoblanib, o'zida milli va madaniy dunyoqarsh xususiyatlarni aks ettiradi. Va ularning ko'pchiligini xalq yaratgan, shu bois frazeologik birliklar oddiy xalqning manfaatlari va kundalik faoliyat bilan chambarchas bog'liq. Ular tilning boshqa vositalar kabi, tildagi an'analarni, xalqning dunyoqarashini, milliy urf-odatlarini bir avloddan ikkinchi avlodga yetkazib beradi va ularning ayrimlari yozma shaklda yetib kelmasa ham, faqat og'zaki nutqda saqlanib qolgan.

Frazeologik birliklarni zamonaviy tilshunoslikda nazariy jihatdan o'rganib, uning antroposentrizmdagi o'zni, struktural tahlili hamda milliy va madaniy dunyoqarashga oid frazeologizmlarni o'rganish masalalarini ko'rib chiqdik. Men birinchi bo'limda frazeologizmning jahon tillarida 20 asrdan paydo bo'la boshlaganini va ushbu yo'nalishda V.I.Zhukov, A.V.Kunin, B.A.Larin, Ye.Polivanov, V.V.Vinogradov, N.M.Shanskiy, A.Malinovskiy, V.L.Arhangelskaya, A.N.Fedorov, V.N.Teliya, A.V.Werner, V.G.Gak, B.Yuldashev, A.Mamatov, Sh.Rahmatillayev, Alimamatov kabi olimlar o'z tadqiqotlarini olib borganini ko'rib chiqdik. Antroposentrizm ta'kidlab o'tganimdek o'tgan asrda eng yetakchi yo'nalishlardan biri bo'ldi. Benvenistening ta'rifi bilan aytganda, "inson markazda" ya'ni antroposentrik tamoyili tilshunoslikda alohida o'rin tutadi. Antroposentrik tamoyiliga ko'ra til emas balki tildan foydalanuvchi shaxs asosiy o'rinda hisoblanadi. Inson obyekt, til esa subyekt sifatida o'rganiladi. Ingliz tilshunosligida antroposentrizm tamoyili uzoq vaqt oldin mukhokamalarga sabab bo'lgan. Beneviste, Guillaume kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida bu atamani uchratish mumkin. Rus tilshunosligida ham Boduen de Kurtene o'zining "Fonologiya" asarida antropofonika – inson nutqining tovush bilan bog'liqligi faniga alohida urg'u berib o'tgan. Artunov, Vejbitskaya, Asperian kabi olimlar izlanuvchilarning insonga bo'lgan qiziqishini tilshunoslikda "antroposentrik siljish" deb nomlashdi. Bu siljish o'z navbatida antroposentrik frazeologiyani yaralishiga poydevor bo'ldi.

Hozirgi kunga kelib esa antroposentrik frazeologiyani yangi rivojlanish bosqichiga yetib kelindi. Ya'ni faqatgina frazeologiyani o'z semantik va structural tomonidan o'rganibgina qolmay, balki o'rganilayotgan tilning xalqini urf-odat, an'analari, lingvomadaniy qarashlari, kelib chiqishi kabi omillar bilan bog'lagan holda frazeologik birliklar o'rganilyapti. Bir so'z bilan aytganda, antroposentrik frazeologiyalarning maqsadi lingvistik va ekstralingvistik ma'noli frazeologizmlarning o'zaro bir-biriga ta'sirini o'rganishdir. Frazeologizmlarning antroposentrik tamoyilda o'rganish nazariyalari davom etadi chunki til ham odam bilan birgalikda rivojlanib boraveradi.

Biz frazeologizmlarning struktural tahlil qilganimizda shunga guvoh bo'ldikki, har bir tilde frazeomalar turli so'z tartibida bo'lar ekan. Bunga sabab, o'rganilayotgan tilning struktural-grammatikasidir. Qaysidir tilda struktura Ega+Kesim+aniqlovchi+to'ldiruvchi+ hol tarzida bo'lsa, boshqa bir tilda buning joylashish o'zni o'zgarishi mumkin. Biz bularni ingliz va o'zbek tillari misolida ko'rib chiqdik. Xulosa qilib aytganda har bir tilning grammatikasi va milliy madaniy dunyoqarashidan kelib chiqqan holda, o'sha tildagi frazeologik birliklarning ham

strukturasi namoyon bo'ladi. Biz agar tilning gramatikasi bo'ysunmagan holda, frazeologik birliklarni o'rnini yoki strukturasi o'zgartirsak unda tilshunoslikda qo'pol xatolik qilgan bo'lamiz.

Milliy-madaniy dunyoqarashni ifodalovchi frazeologik birliklarni zamonaviy tilshunoslikda turli davlarda turli olimlar, izlanuvchilar tomonidan o'rganildi va ular turli qarashlar bilan chiqishdi. Bulardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkin:

1) zamon va makonni ifodalovchi frazeologik birliklar o'rganilgan va ularni bir butun sifatida umumiy fikr yaratilgan;

2) xalqaro frazeologik birliklarni kelib chiqishi va tarqalishi tadqiq qilindi;

3) tarixiy-ijtimoiy voqealarni ifodalovchi frazeologik birliklarni fakt va qonuniyatlarni o'zaro bog'lashgan va ma'lum bir etnik xalqning milliy-madaniy dunyoqarashini ko'rsatib beruvchi sifatida tahlil qilindi.

Bu xulosalardan kelib chiqib shuni aniq ayta olamanki, frazeomalar tasniflayotganda turli asoslarga va qarashlarga ko'ra tuzilishi mumkin ekan. Ular ajratayotganimizda biz asosan frazeomalarni tildagi vazifasiga, qanday grammatik tuzilishga ega ekanligiga, o'zaro semantic bog'lanishiga, qanday gap bo'lagi vazifasini bajarayotganiga kata e'tibor qaratishimiz zarur ekan.

Bir so'z bilan aytganda, til faqatgina xalqning ijtimoiy tarixini aks ettirmaydi, balki xalqning madaniy rivojlanishiga bosqichma-bosqich olib boradi. Shuni tan olishimiz kerakki, til xalqning madaniy rivojlanish darajasini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib beradi. Shunday ekan lingvokulturologiya til va madaniyatning munosabati va o'zaro ta'sirini o'rganuvchi soha sifatida ilmiy tadqiqotini tilning obrazli va frazeologik birliklariga e'tiborni qaratadi. Shunday ekan, zamonaviy tilshunoslikda milliy-madaniy dunyoqarashni ifodalovchi til birliklari ya'ni frazeologizmlarning o'rganish, tadbiiq etish va uni ommaga yoritish har bir shu sohaga qiziquvchi izlanuvchilar uchun muhim masala va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOLAR RO'YXATI:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologizm>
2. Rahmatullayev Sh., O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, T., 1966
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rachmatullayev Sh., Hozirgi o'zbek adabiy tili [3nashr], T., 1992
4. Ахмаджонов, Н., & Рўзиматова, А. (2022). Фразеологизмлар немис халқи миллий маданиятининг кўзгусидир. О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(10), 104-109.
5. АХМАДЖОНОВ, N. (2018). Phraseological units is a mirror of the German national culture. Scientific journal of the Fergana State University, 1(2), 83-85.
6. Ахмаджонов, Н. (2018). ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР НЕМИС ХАЛҚИ МИЛЛИЙ МАДАНИЯТИНИНГ КЎЗГУСИДИР. Farg'ona davlat universiteti, (2), 20-20.
7. Шукуров, Р., & Ахмаджонов, Н. (2022). ПРЕЦЕДЕНТ БИРЛИКЛАРИНИНГ ТАДҚИҚИ ВА ТАСНИФИ. О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 1225-1228.